



TASAVVUFYIY-ISHORIY TAFSIRLAR VA ULARGA QO'YILADIGAN SHARTLAR

¹Habibullayeva Halima Farxod qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

halimahabibullayeva@gmail.com Telefon raqami +998935678923,

²M.M.Agzamova

Ilmiy rahbar: PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575620>

ARTICLE INFO

Received: 16th January 2023

Accepted: 25th January 2023

Online: 27th January 2023

KEY WORDS

Tafsir, ta'vil, nazariy tasavvuf, amaliy tasavvuf, tasavvufiy-ishoriy tafsirlar.

ABSTRACT

Ushbu maqola tafsir ilmining muhim yo'nalishi bo'lmish, tasavvufiy-ishoriy tafsirlarni va ularni qabul bo'lishi uchun qo'yiladigan shartlarni o'rganishga bag'ishlangan. Mutafassir olimlar tomonidan tasavvufiy-ishoriy tafsirlarning maqbul bo'lishi uchun bir qancha shartlar qo'yishgan bo'lib, ushbu shartlar topilgan holatdagini ishoriy tafsirlar to'g'ri hisoblanadi. Bu borada bir qancha tasavvuf va tafsir olimlari o'z asarlarida keltirganlar.

“Tafsir” so'zi lug'atda “bayon qilish”, “ochib berish” va “ravshan qilish” degan ma'nolarini anglatadi. Istilohda esa “Tafsir – Qur'oni Karimdagi Allohning murodini inson qudrati yetganicha o'rganadigan ilmdir”. Arablarda ilmiy, falsafiy asarlarga yozilgan sharhlar ham tafsirlar deb atalgan. Qur'onda ham “tafsir” – “sharh” mazmunida qo'llanilgan:

﴿وَلَا يَأْتُونَكَ بِمَثَلٍ إِلَّا جِئْنَاكَ بِالْحَقِّ وَأَحْسَنَ تَفْسِيرًا ۝٣١﴾

“Ular sizga biron misol keltirsalar, albatta, Biz Sizga haq va eng go'zal sharhni keltirib qo'ydik”¹.

Abu Hayyon Andalusiy “Bahrul muhit” kitobida tafsirga shunday ta'rif beradi:

“Tafsir-shunday ilmki, bu bilan Qur'on lafzlarining qanday nutq qilinishini, u so'zlar nimaga dalolat qilishini, har bir so'z va jumlaning hukmlarini, jumlaning o'zidan bevosita tushuniladigan ma'nolarini, shuningdek, nosix va mansux oyatlar, oyatlarning nozil bo'lish sabablari hamda tarixiy qissalardan ko'zlangan maqsadlar o'rganiladi”.² Tafsir ilmi haqida Imom Zarkashiy (vaf. 1393 h.y.): “Tafsir shunday ilmki, u bilan Muhammad (s.a.v)ga nozil bo'lgan Allohning kitobi tushuniladi, ma'nolari bayon etiladi va undan hukm va hikmatlar olinadi”. Shubha yo'qki, inson bu narsalarni o'z bilimi, toqati, fahmi doirasida tushunadi. Shu bilan birga tafsir qiluvchi olim o'zining maqsadlaridan kelib chiqib, Qur'onni turli mazmundagi oyatlarini o'zlari e'tibor qilgan yo'nalishda tafsir qiladi. Tafsirga berilgan ta'riflarni umumlashtirib shunday deyish mumkin:

“Tafsir – Qur'oni Karimdagi Allohning murodini inson qudrati yetganicha o'rganadigan ilmdir”.

¹ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolar tarjima va tafsiri. – T.: TIU, 2012. – B. 145.

² Muhammad Zarkashiy. Burhon fi ulum al-Qur'an // Muhammad Abulfazl Ibrohim. – Bayrut: Darul ma'rifa, 1980. – J. 1. B. 13-14.



Tafsir bilan bir qatorda “ta’vil” so’zi ham keladi. “Ta’vil” lug’atda “qaytish”, “tafsir qilish”, “sharhlash” ma’nolarini bildiradi. Mutaqaddim olimlar tafsir bilan ta’vilni bir ma’noda ishlatganlar. Abu Ubayda: “Tafsir va ta’vil har ikkisi bir narsa, mutaqaddim olimlar ham farq qilmaganlar”, deydi.

Imom Moturidiy esa: “Tafsir bu so’zning ma’nosi qat’iy mana shu deyish va Alloh o’sha so’zdan mana shuni nazarda tutgan deb, guvohlik berishdir. Agar bunga dalili bo’lsa, u holda so’zi to’g’ri, aks holda, u faqat o’zining ra’yi bilan tafsir qilgan bo’ladi. Bu man etilgan. Ta’vil esa, biror so’zning taxminiy ma’nosini keltirib, uni qat’iy deb aytmay va Allohning nazarda tutgani mana shu, deb guvohlik bermagan holda o’sha ma’noni boshqa ma’nolaridan ustun qilishdir”.

Bularga qo’shimcha ravishda “Ta’vilot ahli sunna” tafsirida ham quyidagi fikrlarni keltirgan: “Tafsir sahobalar uchun, ta’vil esa faqihlar uchundir. Zero, sahobalar vahiyning tushishiga shohid bo’lgan kishilar bo’lib, ularning so’zlari Qur’onni o’zicha tafsir qilish emas, ko’rgan va bilganini bayon qilishdir. Sahobalardan keyingi zamon olimlarining so’zlarini tafsir deb bo’lmaydi, zero, ular qanday fikr bildirsalar ham, ko’rganlarini emas, aqlari yetganini so’zlaydilar. Bu o’zboshimchalik bo’lib, Muhammad sollollohu alayhi vasallam: “Kimki Qur’onni o’zboshimchalik bilan tafsir qilsa, u o’ziga do’zaxdan joy tayyorlab qo’ygandir”,- degan. Demak, sahobalardan boshqa kishilar Qur’on ma’nolarini tushuntirsalar, uni tafsir emas, ta’vil deb atash mumkin. Ta’vilda to’g’ri topgan odam ikki savobga, xato qilgan odam bir savobga ega bo’ladi”³.

Tasavvufiy tafsir atamasini o’rganishdan avval, tasavvuf so’zining lug’aviy va istilohiy ma’nolariga to’xtalib o’tish lozim. “Tasavvuf” va “so’fiy” so’zlari qaysi o’zakdan olingani va undan ko’zlangan ma’no haqida bir qancha fikr-mulohazalar aytilgan bo’lib, ko’pchilik olimlar “so’fiy” so’zi arabcha suf-jun so’zidan olinganini ta’kidlaydilar. Avvalo, lug’at ilmi jihatidan bu so’zning kelib chiqish o’zagi “suf” so’ziga to’g’ri keladi. Qolaversa, ko’p ibodat qilishga berilgan kishilar kiyimni ham juda sodda kiyganlar. Odatda ularning kiyimlari faqat jundan iborat bo’lgan. Sufiylar ko’p hollarda jun chakmon yoki qo’y terisidan tikilgan po’stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni “pashmi-napo’sh”(jun kiyimlilar) ya’ni sufiy deb yuritganlar. Ibn Xaldun bu haqida “Muqaddima” asarida: “Tasavvuf “suf” — “jun”, “po’stin” so’zidan olingan bo’lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to’qilgan kiyim yoki po’stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o’zlarida namoyon etganlar”⁴, deydi. Jun mayin bo’lmagani uchun ham barcha asrlarda obidlarning xos kiyimi hisoblangan. Payg’ambar (s.a.v)ning ibodatlarida so’z borganda ham “U zot jun kiyar edilar” degan rivoyat keltiriladi. Hasan Basriydan qilingan rivoyatda “Badr urushi qatnashchilaridan yetmishtasini ko’rganman, barchasining kiyimi faqat jundan edi”⁵, deyilgan.

³Abu Mansur Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmia, 2005. – B. 349.

⁴ Abdurahmon ibn Xaldun. Muqaddimatu ibn Xaldun // Abdulloh Muhammad Darvesh. – J. 1. – Damashq: Dar yu’rob, 2004. – B. 405.

⁵Ahmad ibn Abdulloh Asbahoniy. Hilyat al-avliyo va tabaqot al-asfiyo. – J. 2. – Livan: Darul kutub ilmiyya, 1988. – B. 134.



Xulosa qilib aytish mumkinki, tasavvuf islom shariati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi olijanob fazilatlarini o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat.

Tasavvuf tafsir ilmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buning natijasida tafsirning yangi turi - tasavvufiy tafsirlar paydo bo'ldi. Tasavvufiy tafsirlar so'fiy tafsir, irfoniy tafsir, ishoriy tafsir, fayziy tafsir deb ham nomlanadi.

Tasavvuf o'z navbatida ikki yo'nalishga bo'linadi:

1. Nazariy tasavvuf.
2. Amaliy tasavvuf.

Nazariy tasavvuf tasavvuf ilmi va uni nazariy ilmiy o'rgatishga asoslanadi. Amaliy tasavvufda esa, zuhd, qalbni dunyodan chetlashishi va nafs tarbiyasi bilan shug'ullaniladi.

Har ikkala yo'nalish ham Qur'oni Karimni tasavvufiy tafsir qilishda o'z ta'siri va ahamiyatiga ega bo'lib, tasavvufiy tafsirshunoslik ham ikki yo'nalishda olib boriladi.

1. Nazariy tasavvufiy tafsir qilish.
2. Ishoriy tasavvufiy tafsir qilish⁶.

Nazariy tasavvufiy tafsirshunoslik - bu Qur'oni Karim oyatlarini zohiriy ma'nosidan chetlanib, mufassir qattiq ta'sirlangan falsafiy yoki musulmonlar rad qilgan aqiydaviy mazhablar tasirida tafsir qilishidir⁷. Bu usulda tafsir qiluvchi mufassirlar asosan yunon falsafasi doirasida fikrlab, oyatlarni sharhlashda botiniy-ramziy ma'nolariga e'tibor qaratishadi, shuningdek, bu borada borliq va metofizika ilmidan kelib chiqib xulosa berishadi⁸. Mufassir falsafiy qarashlarni Qur'on oyatlariga mos kelishini ko'rsatish yo'lini tutadi, ammo, falsafiy ta'limotlarni Qur'on oyatlariga to'g'ridan to'g'ri moslashni iloji yo'q. Sababi, Qur'oni Karim arab tilida, insoniyatni hidoyatga keltirish uchun nozil bo'lgan ilohiy kitob bo'lib, biror nazaryani isbotlash uchun tushurilmagan. Falfafiy tasavvufiy tafsir qiluvchi mufassir o'z ta'lim va nazariyasini singdirishga, Qur'oni Karimdan uning fikrini tasdiqlovchi va qo'llab quvvatlovchi dalil keltirishga harakat qiladi. Natijada, Qur'oni Karim oyatlarini o'zi tushunganicha sharhlay boshlaydi, shariat va lug'at ilmi tasdiqlagan zohiriy ma'nodan chiqib ketib, botiniy ma'no berishga kirib ketadi⁹.

Doktor Muhammad Husayn Zahabiy aytadi: Qur'onning oyatlari va suralarini o'z muayyan maqsadi mavjud, sufiyning ham fikrlari va bahslari ila o'z muayyan maqsadi mavjud. Bu ikki maqsadlar o'rtasida mos keladigan va zid bo'lgan joylari mavjud. Botiniy tafsir qiluvchi sufiy esa, Qur'on oyatlarining ma'nolarini faqat o'z maqsadi taraf burushga, o'zining nazariyasiga moslashga hamda, bu bilan o'z tasavvufiy qarashlarini quvvatlashga harakat qiladi. Bu bilan falsafiy tasavvufiy nazariyalari Qur'onga asoslangan ekanligini isbotlashga urunadi. Ammo uning bu harakatlari Qur'oni Karimga emas, balki, tasavvufiy falsafaga xizmat qilish bo'lib qoladi. Bularning barchasi taqiqlangan va Qur'onga nisbatan yengil qarashdir¹⁰.

Ishoriy tasavvufiy tafsirshunoslik.

⁶ Doktor Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir va al-mufassirin. 1987. Dor al-qalam. Bayrut. 2-juz. -B. 368.

⁷ Muhammad Sayyid Jibriyl. Mudxal ila manahij al-mufassirin. Mutobi' ar risala bil-Qohira. -B. 211.

⁸ Xolid Abdurrohman A'kk. Usul at-tafsir va qovai'duha. Dor an-nafaaz li-t-tibaa'ti va-n-nashr va-t-tavzi'. Bayrut. 1994. -B. 237-238.

⁹ Doktor Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir va al-mufassirin. 1987. Dor al-qalam. Bayrut. 2-juz. -B. 369.

¹⁰ Doktor Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir va al-mufassirin. 1987. Dor al-qalam. Bayrut. 2-juz. -B. 385.



Ishoriy tasavvufiy tafsirga mufassir olimlar quyidagicha ta'rif beradilar: "Qur'on oyatlarining zohiriy ma'nolaridan boshqa, tasavvuf va suluk arboblari gagina zohir bo'lgan yashirin ishoralaridir. Bunda zohiriy ma'nolar bilan ishoriy ma'nolarni orasini jamlash imkoni bo'ladi"¹¹.

Muhammad Sobuniy: "Ba'zi ilm egalariga ayon bo'lgan Qur'onning zohiriga xilof yashirin ishoralar yoki Qur'onning asrorlarini anglashlari uchun Alloh qalb ko'zlarini ochib qo'ygan, tasavvuf ahllaridan bo'lgan nafsiga qarshi kurashgan oriflarga zohir bo'lgan ishoralar hamda ilohiy ilhom vositasida oyatlarning ma'nolarini zehnlarda teran anglagan kishilarning ta'vilidir. Bu ta'villar oyatlarning zohiriy ma'nolariga zid bo'lmay, ularning orasini jamlash mumkin bo'ladi"¹².

Suyutiy "Itqon" kitobida Ibn Atoning mana bu so'zlarini keltiradi: "Bu (tasavvufiy) tafsir turida oyatlarga keltirilgan ma'nolar asliy zohiriy ma'nolarni o'zgartirib, yangi, zohiriy ma'nolarni kashf qilish degani emas. Oyatlarning zohiriy ma'nolari ma'lum va tushunarli. Hamma narsaning tashqi va ichi bo'lgani kabi ularning ham ichki, botiniy ma'nolari bor, ularni esa qalb ko'zi ochilgan kishilar tushunadilar. Ishora bilan tafsir qilganlar zohiriy ma'nodan tashqari chiqib bundan boshqa ma'no yo'q, deb da'vo qilmayaptilar, balki zohirini zohir deb, botinini esa tushunganlaricha aytyaptilar".

Tafsirining muqaddimasida tasavvufiy tafsirga shunday ta'rif beradi: "Tasavvufiy tafsir – suluk arboblari gacha kashf bo'lgan daqiq ma'nolarni jamlagan tafsir turidir"¹³. Bu tafsir turidan ma'lum qoidalar asosida foydalanish joizligi aytib, uchta qoidani sanab o'tadi.

1. Qur'onning zohiriy ma'nosi bilan ishoriy ma'nosi o'rtasida bog'liqlik bo'lishi.
2. Qur'onning zohiriy ma'nosini rad etib, faqat ishoriy ma'nosiniga ushlab, oyatdan ko'zlangan maqsad mana shu demaslik.
3. Ishoriy ma'noni qo'llovchi shar'iy dalilning bo'lishi.

Fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, tasavvufiy tafsirlar – Qur'on oyatlarining zohiriy ma'nolariga qaramay, uni Alloh tomonidan berilgan laduniy ilm orqali maxfiy ishoralari taqozosiga ko'ra tafsir qilishdir.

Olimlar tasavvufiy tafsirlar borasida ixtilof qilganlar. Ba'zilari joiz desalar, boshqalari nojoiz hisoblaganlar. Aslida, tafsirning bu turidan ma'lum shartlar asosida foydalanish mumkin.

Quyida mana shu shartlar ko'rib chiqiladi:

- ishoriy ma'nolardan bilingan ta'villar oyatning lafzida bo'lishi;
- zohiriy ma'no bilan ishoriy ma'no o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi;
- bu ishoralarni tafsir bobidan hisoblamaslik;
- aql va shariatga xilof bo'lmasligi;
- uni qo'llaydigan shar'iy dalil bo'lishi;
- oyatning zohiriy ma'nosiga xilof ravishda, bundan murod ishoriy ma'noning o'zi deb bilmaslik;
- ishoriy ma'no haqiqatdan uzoq bo'lmasligi.

¹¹ Zurqoniy A.M. Manahil al-irfon fi ulum al-Qur'an. – J. 2.– Bayrut: Darul fikr, 1988. – B.78.

¹² Sobuniy M.A. Tibyon fi ulum al-Qur'an. – Damashq: Maktabatul G'azzoliy, 1981. – B.169.

¹³ Shihobiddin Olusiy. Ruhul maa'niy fi tafsir al-Qur'an al-azim vas sab' al-masaniy. – J. 1. – Bayrut-Livan: Ihyau tuross al-ara'biy, 2000. – B. 11.



Bulardan tashqari mutasavviflar ham sulukiy qoidalar asosida Qur'onni tafsir qilish uchun bir qancha shartlarni sanab o'tganlar. Bu shartlarni Horis Muhosibiy (vaf. 243/858) o'zining "Aql va Qur'onni tushunish" kitobida shunday keltiradi:

- Qur'onga muhabbatli bo'lish. Agar qalbingda u bilan gapirilinayotgan (Qur'on) ning ulug'ligini his etsang, sen uchun Allohning kalomini tinglashdan va uning so'zlarini tushunishdan shirinroq, lazzatliroq, foydaliroq, sharafliroq, yuksakroq narsa bo'lmaydi. Agar Alloh u bilan gapirsa, qavl(Qur'on)ni yaxshi ko'rish, u bilan Gapiruvchini yaxshi ko'rish miqdoricha bo'ladi.

- Tilovat. Bu Qur'onga muhabbatini namoyon etish uchun qo'yilgan shartdir. Ya'ni, Qur'onga bo'lgan muhabbat uning lafzlari arabcha bo'lganligi uchun emas, balki Allohning kalomi ekanligi uchun yaxshi ko'rishdir. Tilovat Alloh taoloning so'zlarini anglash uchun nafsning shahvatlari va illatlari hamda dunyoning makkorliklaridan qalbni pok qilgan holatda sodiq niyat bilan ado etilsa to'g'ri bo'ladi.

- Tilovat qilinayotgan oyatlarni tushunishga mutlaq diqqatini va himmatini jamlash. Bu shart "Albatta, bunda (uyg'oq) qalb egasi bo'lgan yoki o'zi hozir bo'lib, quloq tutgan kishi uchun eslatma bordir" oyatidan olingan xulosadir¹⁴.

Yuqoridagi shartlardan ko'rinib turibdiki, Allohning azamatini, buyukligini his qilib turgan mufassir Qur'on oyatlariga o'z havoi nafsidan kelib chiqib, asli yo'q bo'lgan ma'nolarni berishdan tiyiladi. Faqatgina qalb ko'zlari bilan anglagan botiniy ma'nolarni berish bilan tafsir qiladi.

References:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimai. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. – 616 b.
2. Qozi Nosiruddin Abu Sai'd Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad Sheroziy Bayzoviy. Anvor at tanzil va asror at ta'vil. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – J. I. – 543 b.
3. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul-bayon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003. – J. I. – 463 b.
4. [http://www.tafsir.Det/vb/showthread.php?t=2139\(1\)](http://www.tafsir.Det/vb/showthread.php?t=2139(1))

¹⁴ Horis Muhosibiy. Aql va fahm al-Qur'an. – Bayrut: Darul fikr, 1983. – B.340.